

Boshlang'ich Sinf Oquvchilarida Kreativ Fikrlashni Ostitirish

A. Baltamuratova

Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi” kafedrasida kata o'qituvchisi

Saipurxonova Sayda Abdumutalip qizi

TDPU. 4 -bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf oquvchilarida kreativ fikrlashni ostitirish zaruriyati, kreativ fikrlash, bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlar, xorijiy tajribalar boshlang'ich ta'limda kreativlikning 12 ta strategiyasi hamda ularni dars jarayonlariga tatbiq etish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, kreativ yondashish, kreativ faollik, strategiya.

Jahon hamjamiyatida integratsiyalashuv jarayoni kechayotgan bugungi kunda taraqqiyotning asosiy omillari sifatida jamiyat a'zolarining kreativ faollik darajasi e'tirof etilib, xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida “bilimning mustahkam poydevoriga ega bo'lish va kreativ fikrlashni rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish” dolzarb vazifa sifatida qayd etilgan.

Bugungi kunda dunyo amaliyotida har qanday o'zgarishlarga ijodiy yondosha oladigan, mavjud muammolarni noan'anaviy va samarali hal qila oladigan insonlarni tarbiyalash, shuningdek, jamiyatning o'sib borayotgan ehtiyojlari, jadal rivojlanish sur'ati va natijada mutaxassislarini tez o'zgaruvchan sharoitlarda hayotga tayyorlash zaruriyati bilan bog'liq bo'lgan dolzarb masalalar yechimiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish jarayonida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi oldiga pedagogik mahoratini, kreativ salohiyatini va faoliyatini sifat jihatdan yanada rivojlantirish bo'yicha yangi talablarni qo'ymoqda. O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ma'naviy-ma'rifiy ishlarining samarali va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik xissini kuchaytirish, targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlar ilmiy va tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish ustuvor vazifalar sifatida belgilab olingan¹. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirishning umumkasbiy kompetensiyalar tizimidagi o'rni va rolini ochib berish, kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari va tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish, mazkur jarayonga nisbatan ijodiy fikrlash va texnologik yondashuvlarni joriy etish, kreativ salohiyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari hamda texnologiyasini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi.

Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari, ta'lim jarayonida shaxsning ijodiy fikrlash imkoniyatlarini kengaytirish, bevosita shaxsda kreativlik qobiliyatini shakllantirish bo'yicha turli usul, metodlari masalalari respublikamiz olimlaridan B.Adizov, N.Dilova, R.Ibragimov, G.Ibragimova, G.Najmiddinova, R.Nurjanova, R.G.Safarova, N.Tosheva, X.J.Xudoyqulov, F. Ehsonaldovalar; shuningdek, ijodkorlik va ijodiy fikrlash psixologiyasi G.Davletshin, E.G'oziyev, Z.Nishonovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.YE.Andreyev, D.B.Bogoyavlenskaya, G.M.Mardonova, M.V.Golubeva, O.P.Tarasova, O.V.Sorokin, V.V.Serikovlar tomonidan bo'lajak o'qituvchilar tarkibini aniqlash, bo'lajak pedagoglarni ma'naviy-axloqiy shakllantirish, ta'lim jarayonida shaxs rivojlanishining pedagogik tamoyillari, shaxsning ijodiy qobiliyatlari va kreativ faoliyatlarini rivojlantirish muammolari o'rganilgan.

Xorijlik F.Barron, M.A.Wollach, V.V.Safonova, R.I.Sternberg, T.I.Lubart, P.V.Sysoyev, Drapeau Patti kabi pedagog, psixolog, faylasuf, sotsiolog olimlar shaxsning ijodkorligi, kreativ faoliyatini rivojlantirishga oid qator izlanishlarni amalga oshirganlar.

Bugungi kunda butun dunyo miqyosida deyarli barcha soha vakillari tomonidan eng ko'p o'rganilayotgan kreativlik tushunchasi va tuzilishi, uning shakllanishi va rivojlanishiga tas'ir ko'rsatuvchi omillar, kreativlikning jamiyat hayotida tutgan o'rni, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zaruriyati hamda tashabbuskorlik hususiyatlariga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shaxsda kreativ fikrlashning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar falsafiy, psixologik, sosiologik nuqtai nazardan yondashilgan bo'lib, mazkur sohada faoliyat ko'rsatgan yetuk olimlarning va nufuzli xalqaro tashkilotlarning tajribalari va ilmiy izlanishlari natijalarida erishilgan xulosalariga tayaniladi. Shuningdek, kreativlik va kreativ fikrlash tushunchalari xorijiy va mahalliy manbalarga tayangan holda atroflicha tahlil qilingan.

Kreativ fikrlash, biron bir ishga kreativ yondashish bugungi kunda jamiyat hayotining va ishlab chiqarish jarayonining barcha sohalarida eng ko'p e'tibor qaratilayotgan va o'rganilayotgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi. Kreativ fikrlash o'zi nima? Bugungi kunda jamiyatda kreativ fikrlashning o'rni qanday? Kreativlik xususiyatlari shaxsda qanday namoyon bo'ladi?

Mazkur masalaga yondashishda chet el tajribasiga ko'proq tayanish zarur, chunki ushbu masala chet ellik olimlar tomonidan keng va batafsil o'rganilganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan: xorijiy olimlarning fikrisha, boshlang'ich ta'limda "kreativlikning 12 ta strategiyasi" ham muhim o'rin tutadi:

1. Taqlid ushun namuna ko'rsatish (kimki kreativlikka o'rganmoqshi bo'lsa, o'zida uning manbaini izlab topishi kerak).
2. Umume'tirof etilgan qoidalarga munosabat nuqtai-nazaridan yuzaga keladigan shubhalanishlarni qo'llab-quvvatlash (har bir kishini shubhalanishga arziydigan narsa va vaziyatlarni tan olishga o'rgatish).
3. Xato qilish huquqi (xato qilishdan qo'rqish tasodiflarga tayyormaslikka, mustaqil fikrlay olmaslikka olib keladi).
4. Intellektual riskni rag'batlash (ijodkor shaxslar tavakkal qila olishlari kerak, shunki ular boshqalar bosib o'tmagan yo'ldan borishadi).
5. O'qitish jarayonini o'quvshilarning ijodiy salohiyatini namoyon qilish imkoniyatini beradigan usullarda tashkil etish. O'quv topshiriqlarni taqdim etishda "tasavvur qiling...", "nimani taklif qilar edingiz...", "...ni tasvirlang", "o'z taxminingizni bayon eting" tarzidagi jummalarga tayanish yaxshi samara beradi.
6. Muammoni izlab topish, shakllantirish va qayta aniqlashtirish ko'nikmasini rag'batlash (tanlov qilish ko'nikmasi – bu egallash lozim bo'lgan malaka).

7. Ijodiy g'oyalar va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlash va mukofotlash (o'quvshilar hamma vaqt o'qituvshining ularning ijodiy faoliyati natijalarini qadrlashiga alohida ehtiyoj sezishadi).
8. Ijodiy fikrlash ushuni vaqt ajratish (ijod vaqt va o'ylash ushuni vaqtni talab etadigan jarayon).
9. Mavhumlik va tushunarsizlikka shiqdamlilikni rag'batlash (vaqt tig'izligi va noaniqlik davrida "toqat qilmaslik" natijasida yuzaga keluvshi g'oyalar vaqtinshalik va nomaqbuldir).
10. Ijodkor shaxsni yo'lida ushraydigan turli ko'ngilsizliklarga tayyorlash (ijodkorlik – bu nafaqat ijodiy fikr yuritish, balki ortga shekinmaslikdir).
11. Davom ettirish istagini rag'batlash (o'quvshilarda "ijodkorlikda shegara yo'q" tarzidagi g'oyani tarkib toptirish).
12. Ijodkor shaxs va muhit o'rtasidagi bog'liqlikni izlab topish (o'quvshilarni ularning ijodiy iste'dodi rag'bat topishi ushuni shunday sharoitni yo izlab topishi, yoki yaratishiga tayyorlash kerak).

Xulosa qilib aytganda ta'limda o'quvchilarning kreativligidan foydalanish ularga bilimlarni o'zlashtirish va ijodiy tasavvurni rivojlantirishda katta yordam beradi. Kreativlikka o'rgatish nafaqat mumkin bo'lgan holat, balki zaruriyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги ПҚ-5040-сон “маънавий-марифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. / “Халқ сўзи” газетаси, 2021 йил 27 март, №2 (7842).
2. Ходжыев В.Х. О'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish: uslubiy qo'llanma. – T.:TDPU, 2008. – 72 b.
3. Ходжыев В.Х., Sattorov Sh., Artikova M.B. Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi. O'qituvshilar ushuni metodik qo'llanma. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 168 b.
4. Ходжыев В.Х., Sattorov Sh., Artikova M.B. va boshqalar. Maktab o'quvshilarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish (ijtimoiy-gumanitar fanlar): metodik qo'llanma. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 148 b.
5. Dehqonova Ma'mura. Safarbayeva Ro'zaxon. O'quvchi va talaba-yoshlarning ijodiy qobiliyati va kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan dastur hamda texnologiyalar. «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiy. Published June 17, 2022 | Version v1 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6>
6. Балтамуратова А.П. Развитие творческой деятельности будущих педагогов начального образования в контексте развивающего обучения Нукус давлат педагогика институти “Fan va jamiyat” ilmiy-uslubiy jurnali 4-son/ 45-47 бетлар, Нукус 2022
7. Baltamuratova A.P. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorlash jarayonida ijodiy faoliyatini takomillashtirish samaradorligi TDPU “Ilmiy axborotlari” jurnali 11-son 2022
8. Baltamuratova A.P. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi ijodiy faoliyatining mazmuni va tuzilishi M.Ulug'bek nomidagi UzMU “UzMU xabarlari” ilmiy jurnali, 1/1 2023 ISSN 2181-7324
9. Baltamuratova A.P. EFFICIENCY OF IMPROVING THE CREATIVE ACTIVITY OF THE FUTURE PRIMARY EDUCATIONAL TEACHER IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL TRAINING. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, JIF:7.2 56–60. Retrieved from <https://www.sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/512> Berlin 10785, Germany 16 January 2023
10. Baltamuratova A.P. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchi faoliyatida pedagogik va ijodiy qobiliyat. Impact Factor: 9.2 ISSN-L: 2544-980X. Miasto Przyszłości Kielce 2022 <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/822/76>

11. Baltamuratova A.P. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini takomillashtirish. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, (2022, November 28) Prague, Czech. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7370316>
12. Baltamuratova A.P. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari. «Zamonaviy dunyoda Innovatsion Tadqiqotlar, Nazariya Va Amaliyot» Nomli Ilmiy, Respublika Onlayn Konferensiya, Attribution 4.0 International (2022). 1(27), 138–148. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7376276>
13. Baltamuratova A.P. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish «XXI asr ko'nikmalarini ommalashtirishda talabalarning roli» Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya I-qism. Jizzax shahri 18 noyabr 2022 yil
14. Baltamuratova A.P. & Raxmatova R.D. (2022). Aniq Va Tabiiy Fanlarni O'qitish Metodikasini Takomillashtirish Nazariy Bilimlarini Amaliyot Bilan Bog'lash. Miasto Przyszłości, Impact Factor 9.2. N 29, Pp. 286–289. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/775>
15. Baltamuratova A.P. & Raxmatova R.D. (2022). PEDAGOGIKA TA'LIM YO'NALISHLARI VA MUTAXASSISLIKLARINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA KREDIT-MODUL TIZIMINING AHAMIYATI Vol. 1 No. 5 (2022): INTERNATIONAL CONFERENCE:PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS <https://academicsresearch.com/index.php/icpass/article/view/909>
16. Балтамуратова Ақсунгул Пердебай қызы, Абдіқалиева Венера Турдіқали қызы БАСТАУЫШ МЕКТЕПТЕГІ ОҚУШЫЛАРДЫҢ ШЫҒАРМАШЫЛЫҚ ҚАБІЛЕТІН ДАМУЫ INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337